

TA'LIM TIZIMIDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN SAMARALI ISHLASHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING VAZIFALARI

Boymurodova Dildora Abdug'afforovna

Buxoro viloyat Qorako'l tumani

19-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning psixologik jihatlari, ularning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda maktab amaliyotchi psixologining vazifalari yoritilgan. Shuningdek, iqtidorli o'quvchilarning psixologik xususiyatlari hamda ular bilan ishlashning samarali usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Iqtidorli o'quvchi, psixologik diagnostika, kreativ fikrlash, motivatsiya, qobiliyat, maktab psixologi, individual yondashuv, intellektual rivojlanish, psixologik yordam, ta'lim jarayoni.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti intellektual salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liqdir. Iqtidorli o'quvchilar odatda yuqori bilim olish qobiliyati, tez fikrlashi, kuchli xotirasi, kreativ tafakkuri va mustaqil fikrlashi bilan boshqa tengdoshlaridan ajralib turadi. Shu bilan birga, bunday o'quvchilarda emotsional sezgirlik va yuqori talabchanlik kabi psixologik xususiyatlar ham kuzatilishi mumkin.

Maktab amaliyotchi psixologi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda muhim o'rin tutadi. Uning asosiy vazifalaridan biri — o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini psixologik diagnostika asosida aniqlashdir. Psixolog turli testlar, kuzatishlar, suhbatlar va psixodiagnostik metodlar orqali o'quvchilarning intellektual hamda ijodiy salohiyatini o'rganadi. Bu esa iqtidorli bolalarni erta aniqlash imkonini beradi.

Howard Gardner ko‘p qirrali intellekt nazariyasida inson qobiliyatlari turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. Shu sababli o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini har tomonlama baholash muhim hisoblanadi. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv muhim psixologik tamoyil hisoblanadi. Har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va psixologik holati inobatga olinishi zarur.

Maktab psixologi o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash va stress holatlarining oldini olish bo‘yicha korreksion mashg‘ulotlar olib boradi. Chunki ayrim iqtidorli bolalarda muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish yoki emotsional zo‘riqish holatlari kuzatilishi mumkin.

Shuningdek, psixolog ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikda ishlashi zarur. Ota-onalarga farzandning qobiliyatlarini to‘g‘ri rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berish, o‘qituvchilar bilan esa individual ta’lim yondashuvlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Iqtidorli o‘quvchilarni turli fan olimpiadalari, ijodiy tanlovlar, ilmiy loyihalar va intellektual musobaqalarga jalb qilish ularning salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, psixologik treninglar, kreativ fikrlash mashqlari va kommunikativ rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar iqtidorli o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. — Toshkent, 2019. Yurtimizda yuz berayotgan ulkan o‘zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta’lim jarayoniga xam o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ta’lim jarayonida shaxsni kamol toptirish shart-sharoitlarini yaratish ta’lim muassasalarida ishlarni to‘g‘ri tashkil etilganligi bevosita psixologik xizmatni to‘g‘ri tashkil etishga xam bog‘liqdir. Ta’lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi tarbiyalanuvchi, o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish asosida uning shaxsi har tomonlama kamol topishi, xam ma’naviy, xam aqliy rivojlanishi, o‘zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta’lim-tarbiyaviy hamda ma’naviy-ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Ma’lumki, keyingi yillarda ta’limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarining ustivorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy

fazilatlarini rivojlantirish; ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal suratlar bilan olib borildi.

Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning ma'nsadi:

- yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir;

- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi say-harakati, shuningdek ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zahiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish:

- intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;

- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologikpedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Beliglangan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifani belgilab olamiz:

- Iqtidorli o'quvchilarni izlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy– uslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash.

- Intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rganish.

- Yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini o'rganish.

- Yoshlarning ma'naviy intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish manbalarini yaratish.

- Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqish.

- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqish;

- fanning turli sohalaridagi mutaxassislar intellektual salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- ta'lim menejmenti sohasida innavatsion takliflarni o'rganish va ularni ta'lim tizimiga tadbiq etish;

- bo'lajak rahbar kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish va ko'maklashuvchi yuridik malakani (xorijiy) o'rganish va me'riy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish.

Bugungi kunda olib borilayotgan ijodiy intellektual salohiyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi talab darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, yoshlarni ta'lim jarayonida intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi.

Har bir o'quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir.

Muayyan takomillashgan pedagogik yoki psixologik uslubni qo'llash, uni mantiqiy-nazariy jihatdan to'liq anglab olish va amaliyotga qo'llashgacha bo'lgan murakkab jarayonga qaraganda – jarayonning o'zini loyihalashtirish eng qulay va samarador uslubdir. Ya'ni har bir o'quvchiga individual yondoshish kerak. Agar bola barcha vazifalarni osonlik bilan bajarsa, unda mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, mustahkam xotira, barcha narsalarga qiziquvchanlik, o'z fikrini tushuntira olish, matematik amallarni bajara olishi, dunyoqarashining kengligi - bularning barchasi unda bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligi va kattalar tomonidan etarli darajada e'tibor berish kerakligini talab etadi.

Iqtidorli bola quyidagi xususiyatlarni ham o'zida mujassam etadi: ijodiy, original fikrga ega; yumor, hazilni tushunadi; biror narsani bilishga nisbatan cheksiz intilish va qiziquvchanlik; boy tasavvurga ega (ijodiy, tasviriy, musiqiy faoliyatda namoyon bo'ladi); ko'p hollarda o'z tengdoshlaridan mustaqilligi bilan ajralib turadi, kattalar bilan muloqotga intiladi. Ba'zida esa ota-onalarni farzandlarining o'z tengdoshlariga o'xshamasligi, boladagi o'ta qiziquvchanlik, bilishga katta ishtiyoq xavotirga soladi. Bolaning xatti-harakatlari qat'iy va noan'anaviy bo'lsa, masalan Nimaga? Nima uchun? kabi savollarni ko'p bersa ba'zida ota-onalar bu savollarga javob berishga

qiynalsalar, ular bolalarga tanbeh berishlari, va hattoki, uni jazolashlari mumkin. Bunday holatlarda ota-onalar boladagi ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish o'rniga uni so'ndiradilar.

Iqtidorli bolalarning ota-onalari bilan suhbatlashganda ularning farzandlarining barcha sohalarda birinchi bo'lishi kabi hohishlarining guvohi bo'lish mumkin. Masalan, ona - mening farzandim qobiliyatli bo'lsa -yu, nima uchun o'qishni hohlamaydi? degan savolni berishi mumkin. Ba'zida shunday holatlar bo'ladiki, ota-onalar bolani haddan tashqari biror bir mashg'ulot bilan shug'ullanishga majbur qilishlari, bolada ana shu faoliyatga nisbatan nafratni uyg'otishi mumkin. Agar biror muddat vaqt o'tsa, bolaning o'zi bunga qiziqishi, chunki ayni vaqtda bolani boshqa mashg'ulotlar ko'proq qiziqtirishi mumkin.

Iqtidorli bolalarning psixologik rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular bilan ishlashda individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarining fikricha, agar bolaning intellektual, ijodiy yoki jismoniy ehtiyojlari o'z vaqtida qondirilmasa, bu holat uning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, hissiy zo'riqish va turli nevrotik holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish hamda psixologik jihatdan himoya qilish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Iqtidorli bolalarda odatda mustaqil fikrlash, noodatiy yondashuv, kuchli qiziqish va yuqori darajadagi ijodkorlik kuzatiladi. Bunday bolalarning qiziqishlarini cheklab qo'yish emas, aksincha ularni rag'batlantirish zarur. Ota-onalar va pedagoglar bolaning erkin fikr bildirishiga, sevimli mashg'ulotlarini tanlashiga hamda o'z qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon yaratishlari lozim. Chunki iqtidorning rivojlanishi erkin muhit va qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, iqtidorli bolalarda tengdoshlari bilan muloqot qilishda ayrim qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Ba'zan ular o'z bilim va qobiliyati sababli boshqa bolalardan ajralib qoladilar yoki jamoaga moslashishda muammolarga duch keladilar. Shu bois kattalar bolaning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Guruhiy o'yinlar, jamoaviy mashg'ulotlar hamda tengdoshlar bilan hamkorlik faoliyati bolalarning ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi.

Ko'pgina ota-onalar iqtidorli farzandining tengdoshlaridan tezroq rivojlanayotganini ko'rib, uni yuqori sinfga o'tkazish yoki o'qishni tezlashtirish haqida o'ylaydilar. Biroq bunda bolaning nafaqat bilim darajasi, balki psixologik va ijtimoiy tayyorgarligi ham hisobga olinishi kerak. Chunki yosh jihatdan katta bolalar orasida o'qish ayrim hollarda bolaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bolaning hissiy barqarorligi, jamoaga moslashuvi va o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Iqtidor turli faoliyat yo'nalishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Ayrim bolalarda o'quv faoliyatiga qiziqish juda erta shakllanadi. Ular kichik yoshidanoq kitob o'qishga intiladi, murakkab savollar beradi, matematik amallar va belgilarni tez o'zlashtiradi. Ba'zi bolalar esa tabiat hodisalari, texnika yoki ilmiy jarayonlarga katta qiziqish bildiradilar. Bu esa ularning intellektual salohiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Badiiy qobiliyatga ega bolalarda esa rasm chizish, haykaltaroshlik, musiqa yoki sahna san'atiga moyillik erta namoyon bo'ladi. Ular ranglarni uyg'unlashtirish, obraz yaratish yoki musiqiy tovushlarni farqlashda yuqori natijalarni ko'rsatadilar. Harakat faoliyatiga moyil bolalarda esa chaqqonlik, muvozanatni saqlash, sport mashqlarini tez o'zlashtirish kabi xususiyatlar kuzatiladi.

Har qanday iqtidor o'z vaqtida aniqlanib, to'g'ri rivojlantirilsa, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omilga aylanishi mumkin. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi, ijodiy yondashuvi va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir.

Intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish tizimli hamda maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Pedagog avvalo o'quvchilardagi mavjud qobiliyatlarni aniqlashi, ularni rivojlantirish usullarini ishlab chiqishi va amaliy faoliyatga tatbiq etishi zarur. Dars jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini kuzatish, mustaqil topshiriqlar berish, muammoli vaziyatlar yaratish hamda innovatsion metodlardan foydalanish ularning salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuviga yordam berish

bugungi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Ota-ona, pedagog va psixologlarning hamkorligi asosida yaratilgan sog'lom muhit bolalarning intellektual hamda ijodiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchilar bilan samarali ishlashda maktab amaliyotchi psixologi muhim vazifalarni bajaradi. Psixologik diagnostika, individual yondashuv, motivatsion qo'llab-quvvatlash va oila-maktab hamkorligi orqali iqtidorli o'quvchilarning intellektual hamda ijodiy salohiyatini samarali rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2018.
3. Karimova V.M. Yosh va pedagogik psixologiya. — Toshkent: Sharq, 2020.
4. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat asoslari. — Toshkent, 2021.
5. Howard Gardnerning ko'p qirrali intellekt nazariyasi.
6. Lev Vygotskyning rivojlanish nazariyasi.
7. Ziyonet